

MUDOFAA VAZIRLIGI ISHCHI GURUHI MAKTABDA



MUDOFAA VAZIRLIGI ISHCHI GURUHI MAKTABDA

Bugun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining ishchi guruhi polkovnik X. Qarshiyev boshchiligida tumanimiz hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev, tuman sektorlari rahbarlari bilan birgalikda 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lishdi. Ishchi guruh a'zolari mahallada o'quvchi yoshlar va uyushmagan yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlarni tahlil etdilar.

Tashrif chog'ida ishchi guruh a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi 92-sonli "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga asosan Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisining ish xonasi va "mahallabay" tizimi asosida yoshlar bilan qilingan ishlarni ko'zdan kechirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-11 sinf o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora - tadbirlari to'g'risida" gi 792-sonli qarori ijrosi bo'yicha tashkil etilgan tikuvchilik to'garagi faoliyati bilan tanishib, bu bo'yicha o'zlarining kerakli taklif va tavsiyalarini berdilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 iyuldagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini - o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasasi bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi 175-sonli qarori ijrosi yuzasidan maktab jamoatchilik markazi a'zolari ushbu qarorning talablaridan kelib chiqib, "mahallabay" tizimi asosida olib borilgan ishlari haqida ishchi guruh a'zolariga o'zlarini tajribalaridan kelib chiqib, ma'lumotlar berdilar.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-23 11:37:27